

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi haqiqiy a’zoligi (akademikligi)ga nomzodlarni tanlov asosida saralash mezonlari

T/r	Tanlov asosida saralash mezonlari	Ballar miqdori*
1.	Xalqaro reyting**	30 ballgacha
1.1.	reyting shkalasi 1 — 2	5 ball
	reyting shkalasi 3 — 5	10 ball
	reyting shkalasi 6 — 8	20 ball
	reyting shkalasi 9 — 11	25 ball
	reyting shkalasi 12 va undan yuqori	30 ball
1.2.	<i>Agar talabgorning reytingi nol bo ‘lsa, uning ilmiy ishlarni nashr etishdagi faolligi Web of Science xalqaro ma’lumotlar bazasi yordamida hisoblangan impakt-faktorlar yig‘indisiga asoslangan holda quyidagicha baholanadi:</i>	
	impakt-faktorlar yig‘indisi 5 gacha	2 ball
	impakt-faktorlar yig‘indisi 5 — 10	3 ball
	impakt-faktorlar yig‘indisi 11 — 20	5 ball
	impakt-faktorlar yig‘indisi 21 va undan yuqori	10 ball
2.	Web of Science xalqaro ma’lumotlar bazasiga kiritilgan yuqori reytingli maqolalar bilan hujjatli tarzda tasdiqlangan eng salmoqli ilmiy natijalar	15 ballgacha
2.1.	yangi hodisaning kashf etilishi	8 ball
2.2.	yangi nazariyaning yaratilishi	4 ball
2.3.	boshqalar	3 ball
3.	Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash	15 ballgacha
3.1.	ikki nafar fan doktori (tibbiyot yo‘nalishlari uchun — uch nafar fan doktori)	5 ball
3.2.	uch nafardan besh nafargacha fan doktorlari (tibbiyot yo‘nalishlari uchun — to‘rt nafardan to‘qqiz nafargacha fan doktorlari)	7 ball
3.3.	Olti nafar va undan ortiq fan doktori (tibbiyot yo‘nalishlari uchun — o‘n nafar va undan ortiq fan doktorlari)	10 ball
3.4.	Bir nafardan besh nafargacha fan nomzodlari yoki falsafa doktorlari (tibbiyot yo‘nalishlari uchun — bir nafardan to‘qqiz nafargacha fan nomzodlari yoki falsafa doktorlari)	2 ball
3.5.	olti nafardan to‘qqiz nafargacha fan nomzodlari yoki falsafa doktorlari (tibbiyot yo‘nalishlari uchun — o‘n nafardan o‘n to‘qqiz nafargacha fan nomzodlari yoki falsafa doktorlari)	4 ball
3.6.	o‘n nafar va undan ortiq fan nomzodlari yoki falsafa doktorlari (tibbiyot yo‘nalishlari uchun — yigirma nafar va undan ortiq fan nomzodlari yoki falsafa doktorlari)	5 ball
4.	Patentlar, monografiyalar va darsliklar	10 ballgacha
4.1.	bittadan uchtagacha xorijiy patentlar	2 ball
4.2.	to‘rt va undan ortiq xorijiy patentlar	4 ball
4.3.	bittadan uchtagacha O‘zbekiston Respublikasi patentlari yoki mualliflik guvohnomalari	1 ball
4.4.	to‘rt va undan ortiq O‘zbekiston Respublikasi patentlari yoki mualliflik guvohnomalari	2 ball
4.5.	xorijda nashr etilgan bitta monografiya yoki monografiyalardagi boblar	1 ball
4.6.	xorijda nashr etilgan ikki va undan ortiq monografiya yoki monografiyalardagi boblar	3 ball
4.7.	O‘zbekistonda nashr etilgan monografiyalar va darsliklar	1 ball

5.	Ilmiy-texnik faoliyat natijalarining joriy etilishi	10 ballgacha
5.1.	yaratilgan texnologiya, mahsulot va buyumlarning bittadan to‘rttagacha litsenziyalarini sotish	3 ball
5.2.	yaratilgan texnologiya, mahsulot va buyumlarning beshta va undan ortiq litsenziyalarini sotish	5 ball
5.3.	bitta ishlanmaning amaliyotga joriy etilishi	2 ball
5.4.	ikki va undan ortiq ishlanmalarning amaliyotga joriy etilishi	3 ball
5.5.	tan olingen xalqaro ma’lumotlar banklarini yaratish yoki boyitish	2 ball
6.	Davlat mukofotlari va xalqaro mukofotlar	10 ballgacha
6.1.	faxriy unvonlar yoki xalqaro mukofotlar	6 ball
6.2.	ordenlar va medallar	4 ball
7.	Tanlov komissiyasi majlisida ilmiy ma’ruzaning baholanishi***	10 ballgacha
Jami ballar		100

* Barcha bandlar bo‘yicha to‘planadigan ballar tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi lozim. Qo‘yilgan ballarning haqqoniyligi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Prezidiumi shakllantiradigan tanlov komissiyalari huzuridagi ekspert guruhlari tomonidan tekshiriladi.

** Olimlarga unvonlar berish va ularni akademiya a’zoligiga saylash uchun dunyoda ularning ilmiy ishlariga havolalarning darajasini ko‘rsatuvchi reytinglar shkalasi (Xirsh indeksi)dan foydalaniladi. Reyting xolis, olimlarning o‘zлari ishtiroy etmagan holda, Web of Science xalqaro ma’lumotlar bazasi tomonidan belgilanadi. Har qanday olim, shuningdek, tanlov komissiyalari huzuridagi ekspert guruhlari talabgorning reytingini <https://www.webofscience.com/wos/author/search> veb-saytida bir zumda baholashi mumkin.

*** Mazkur band ballari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi haqiqiy a’zoligi (akademikligi)ga nomzodning ma’ruzasi natijalariga ko‘ra tanlov komissiyalari tomonidan qo‘yiladi.